

ISSN: 2181-9416



# ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК ЮРИСТА \* LAWYER HERALD

ҲУҚУҚИЙ, ИЖТИМОИЙ, ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

ISSN 2181-9416  
Doi Journal 10.26739/2181-9416

# ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

4 СОН, 3 ЖИЛД

# ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 4, ВЫПУСК 3

# LAWYER HERALD

VOLUME 4, ISSUE 3



TOSHKENT-2023

## Мундарижа

### ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ

<b>1. ВАКНРАМОВА Mokhinur</b> LEGAL ANALYSIS OF METHODS OF REALIZATION OF PROPERTY RIGHTS BY AUTHORS AND PRACTICE OF LAW ENFORCEMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	8
<b>2. TURDIEV Bobir Sobirovich</b> KORPORATIV SEKTORNING EKOLOGIK MAS'ULIYATINI OSHIRISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI .....	14
<b>3. ҲАМДАМОВ Шаҳзод Мақсуд ўғли</b> РАҚАМЛАШТИРИШ ТУШУНЧАСИ, МАЗМУН-МОҲИАТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ .....	23

### СУД ҲОКИМИЯТИ. ПРОКУРОР НАЗОРАТИ. ҲУҚУҚНИ МУҲОҒАЗА ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

<b>4. ПАНАБЕРГЕНОВА Жамиля Таировна</b> ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДОПРОИЗВОДСТВЕ .....	30
<b>5. JUMAYEV Shohjahan Begimqul o'g'li</b> QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARINI O'TKAZISH ASOSLARI VA ULARNI QONUN HUIJATLARIDA TARTIBGA SOLISHNING DOLZARB MASALALARI.....	36

### ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ, ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ

<b>6. ОТАЖОНОВ Абдоржон Анварович, НОРМАНОВА Клара Эшназаровна</b> ЖИНОЯТНИ ТАШКИЛ ЭТГАН ЁКИ РАҲБАРЛИК ҚИЛГАН ШАХС ҚИЛМИШИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ.....	43
<b>7. КАРИМОВ Ифтихор Ибрагимович</b> ЭКСТРЕМИЗМ ТУШУНЧАСИ, ШАКЛЛАРИ ВА МОҲИАТИ: ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..	52
<b>8. SHUKUROVA Muhayyo Mukumjanovna</b> НОКИМИЯТ НАРАКАТСИЗЛИГИ UCHUN JAVOBGARLIK MUAMMOLARIGA DOIR ILMIY TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISHI .....	61

### ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ. КРИМИНАЛИСТИКА. ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ҲУҚУҚ ВА СУД ЭКСПЕРТИЗАСИ

<b>9. БОЗОРОВ Мақсудали Махмудович</b> ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ПРОЦЕССУАЛ ЧИҚИМЛАРНИ УНДИРИШ, ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ БИЛАН ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	66
---	----

## ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ

### 10. TILLABAYEV Mirzatillo

THE UNIVERSAL DECLARATION OF HUMAN RIGHTS: HISTORICAL OVERVIEW AND IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN..... 74

### 11. ФАЙЗУЛЛАЕВА Нигорахон Равшановна

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ СИСТЕМА ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ НЕЗАКОННОГО ОБОРОТА КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В МЕЖДУНАРОДНОМ КУЛЬТУРНОМ ПРАВЕ..... 80

### 12. САФАРОВА Шахло Пулатовна

ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ БЎЙИЧА ТАЪЛИМНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ШАРТНОМАВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАНБАЛАРИ ..... 89

### 13. ЕСЕМУРАТОВ Алишер Избасарович

ПРИЧИНЫ, ТЕНДЕНЦИИ И ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ НЕЗАКОННОЙ МИГРАЦИИ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ..... 96

### 14. ХАМЗАЕВ Дилавер

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В БОРЬБЕ С ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ ..... 102

## ҲУҚУҚИЙ АМАЛИЁТ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

### 15. РАХМАНОВ Шухрат Наимович, ХАМДАМОВА Фируза Уразалиевна

МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА ЦИФРОВУЮ ЭКОНОМИКУ 113

### 16. SUFIEVA Dilafruz

ABOUT QUALITATIVE CHANGES IN THE RULE-MAKING PROCESS.....120

### 17. САФАРОВ Темур Уктамович

АНАЛИЗ ВНЕШНЕГО И ВНУТРЕННЕГО КОНТЕКСТА ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ НАЛИЧИЯ УСЛОВИЙ ДЛЯ КОРРУПЦИИ В ГОСУДАРСТВЕННОМ СЕКТОРЕ .....125


# ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ ВЕСТНИК ЮРИСТА LAWYER HERALD

**TURDIEV Bobir Sobirovich**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta prokurori  
E-mail: [bobir.turdiev.uz@gmail.com](mailto:bobir.turdiev.uz@gmail.com)

## KORPORATIV SEKTORNING EKOLOGIK MAS'ULIYATINI OSHIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

**For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования):** TURDIEV B.S. Korporativ sektorning ekologik mas'uliyatini oshirishning huquqiy mexanizmlari // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2023) В. 14-22.

 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2023-4-2>

### АННОТАЦИЯ

Maqolada korporativ ijtimoiy va ekologik mas'uliyat (KIEM) tushunchasi, huquqiy tabiati va qo'llash mexanizmlari o'rganilgan. Milliy qonunchilikda KIEM tamoyillari bevosita belgilanmaganligi, ushbu institutdan korporativ sektorning xabardorligi pastligi, qonunchilikda va korporativ sektor faoliyatini o'zini-o'zi tartibga soluvchi hujjatlarda mazkur tamoyillar va ularni amalga oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan mexanizmlar belgilanmaganligi ko'rsatilgan. Iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi ta'sirini yumshatish va barqaror rivojlanish uchun echim sifatida korporativ sektorning ekologik mas'uliyatini oshirish tamoyillarini milliy qonunchilikda va o'zini-o'zi tartibga soluvchi hujjatlarda joriy etish taklif qilingan. Ekologik mas'uliyatni keng joriy etish bo'yicha lozim darajadagi ehtiyotkorlik va hisobdorlik, jamoat manfaatlari uchun sudga da'vo kiritish, "yashil" xaridlar hamda mas'uliyatli biznesni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha mexanizmlar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** korporativ ijtimoiy va ekologik mas'uliyat, barqaror rivojlanish, huquqiy mexanizm, lozim darajadagi ehtiyotkorlik, hisobdorlik, jamoat manfaatlari uchun sudga da'vo kiritish, "yashil" xaridlar va investitsiyalar.

**ТУРДИЕВ Бобир Собирович**

Старший прокурор Правоохранительной академии  
Республики Узбекистан  
E-mail: [bobir.turdiev.uz@gmail.com](mailto:bobir.turdiev.uz@gmail.com)

## ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ КОРПОРАТИВНОГО СЕКТОРА

### АННОТАЦИЯ

В статье исследуются понятие, правовая природа и механизмы реализации корпоративной социальной и экологической ответственности (КСЭО). Установлено, что принципы КСЭО не определены в национальном законодательстве, а осведомленность об этом институте в корпоративном секторе низкая, принципы и механизмы,

направленные на стимулирование реализации КСЭО в национальном законодательстве и саморегулируемых документах корпоративного сектора не указаны. В статье предложены внедрение принципов экологической ответственности корпоративного сектора как решение для смягчения последствий изменения климата и загрязнения окружающей среды и содействие устойчивому развитию. Для широкого внедрения экологической ответственности предлагаются механизмы должной осмотрительности и отчетности, судебные иски в интересах общества, «зеленые» закупки и системы поощрения ответственного поведения бизнеса.

**Ключевые слова:** корпоративная социальная и экологическая ответственность, устойчивое развитие, правовой механизм, должная осмотрительность, отчетность, судебные разбирательства в интересах общества, «зеленые» закупки и инвестиции.

**TURDIEV Bobir**

Senior prosecutor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: [bobir.turdiev.uz@gmail.com](mailto:bobir.turdiev.uz@gmail.com)

## LEGAL MECHANISMS FOR ENHANCING ENVIRONMENTAL RESPONSIBILITY OF CORPORATE SECTOR

### ANNOTATION

The article examines the concept, legal nature and enforcement mechanisms of corporate social and environmental responsibility (CSER). It is found that the CSER principles are not directly defined in the national legislation, the awareness about this institution is low in the corporate sector, the principles and mechanisms aimed at encouraging the enforcement of environmental responsibility are not stated in the national legislation and self-regulatory documents of the corporate sector. The article proposes introduction of principles of environmental responsibility in national legislation and self-regulatory documents as a solution to mitigate impact of climate change and environmental pollution and contribute to sustainable development. Due diligence and reporting, public interest litigation, green procurement, and a system of promoting responsible business conduct are proposed as mechanisms for a wide implementation of CSER.

**Keywords:** corporate social and environmental responsibility, sustainable development, legal mechanism, due diligence, reporting, public interest litigation, “green” procurement and investment.

Bugun iqlim o'zgarishi global darajadagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Afsuski bu muammo ko'pchilik davlatlar qatori O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q. O'zbekistondagi ekologik holatning naqadar jiddiy ekanligini xalqaro reyting va tadqiqotlardan ham ko'rish mumkin. Xususan, 2021 yilgi Jahon havo sifati hisobotiga ko'ra O'zbekiston havosi eng ifloslangan 12 ta davlatlardan biri hisoblanib, havodagi qum-chang zarrachalari Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti me'yorlaridan 8.6 baravar yuqori hisoblanadi [1].

Etiborlisi, atrof-muhit ifloslanishi va uning natijasida yuzaga keladigan tabiiy omillar nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy oqibatlarga, balki fuqarolar sog'ligiga ham salbiy ta'sir qiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra ekologik omillardan har yili 13 mln. kishi halok bo'lib, shundan 6,5 mln. o'lim havo ifloslanishi oqibatida yuz beradi [2]. Bunda 90 foizi o'lim ko'rsatkichlari rivojlanayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi [3].

Sanoat ishlab chiqarishi, qurilish ishlari, avtotransportlar sonining muttasil o'sishi, daraxtlarni kesish va yashil bog' va maydonlar hududining qisqarishi kabi antropogen omillar O'zbekistonda atrof-muhit ifloslanishiga olib kelayotgan asosiy omillar bo'lib, bu havo, er, erosti, suv manbalarining ifloslanishida o'z aksini topmoqda.

Atrof-muhit va ekologiyaga zararli ta'sirlarning asosiy sababchilaridan biri korporativ

sektor hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda biznes hamjamiyatning mas'uliyatini oshirish uchun korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) standartlaridan keng foydalaniladi.

*Korporativ ijtimoiy mas'uliyat o'zi nima?* KIM korporativ sektorning jamiyat va atrof-muhitga ehtimoliy ta'siri yuzasidan mas'uliyati va hisobdorligi hisoblanadi. KIMning asosiy maqsadi nafaqat aksiyadorlar balki barcha manfaatdor tomonlar uchun umumiy manfaatdorlikni maksimal darajada oshirish bo'lib, korxonaning salbiy ta'siri, shu jumladan ta'minot zanjiridagi salbiy ta'sirlarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etishni nazarda tutadi [4]. KIM shunchaki qonunga amal qilishni anglatmaydi, balki qonunda nazarda tutilgan talablardan ham o'ziga yuqoriroq talablarni (majburiyatlar) belgilash, jamiyat va ekologiya muammolariga proaktiv echim taklif qilish hamda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

KIM tashkilotning asosiy va yagona maqsadi faqat foyda olish emas, balki korxonaning faoliyatining jamiyat manfaatlariga ham muvofiq kelishini ta'minlash hamda korxonaning jamiyatga ta'siri yuzasidan proaktiv choralarni amalga oshirishni anglatadi. Bunda KIM korxonaning faoliyati va munosabatlarida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlar muvozanatini ta'minlash hamda har uchchala manfaatlarni korxonaning strategiyasiga integratsiya qilishni anglatadi [5]. Shundan kelib chiqib, KIMning iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhit masalalari bo'yicha uchta asosiy yo'nalishlari keltiriladi.

KIMning asosiy yo'nalishlaridan biri atrof-muhit muhofazasi hisoblanadi. Korporativ ekologik mas'uliyat (KEM) biznesning atrof-muhitga zararli ta'sirini yumshatish, oldini olish va bartaraf etish hamda kelajak avlodlar uchun barqaror ekologik muhitni saqlash va uni qayta tiklashni nazarda tutadi. E'tiborlisi, mazkur standartlar korporativ sektorning o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladigan o'zini o'zi tartibga soluvchi mexanizmlardan hisoblanadi. KEM nafaqat qonunlarga amal qilish, balki o'z faoliyatida qonunlarda nazarda tutilganidan ham yuqori standartlarni joriy etish orqali, korporativ sektorning jamiyat va ekologiyaga salbiy ta'sirini minimallashtirish hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlar uyg'unligini ta'minlashni nazarda tutadi. KEM standartlari korporativ sektorda energiyani tejash, ekologik ifloslanishni kamaytirish, raqobatbardorlik va reputatsiyani oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda yakunda tashkilot foydasi o'sishiga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada korporativ sektorning ijtimoiy-ekologik majburiyatlari sifatida korporativ ijtimoiy va ekologik mas'uliyat (KIEM) atamasidan foydalanilgan bo'lib, KIEM atamasi yuqoridagi standartlarning atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq jihatlarni qamrab oladi.

**Huquqiy jihatdan** KIEM asosan to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi qonunchilik bilan emas, balki bilvosita normalar orqali tartibga solinadi. Jumladan, tadbirkorlik, mehnat, inson huquqlari, ekologiya, er, suv masalalariga oid qonun hujjatlarida yuridik shaxslar zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklangan. Ayrim davlatlarda, KIEMni bevosita tartibga soluvchi qonun normalari ham mavjud. Masalan, Qozog'iston Tadbirkorlik kodeksining 75-moddasida tadbirkorlikning ijtimoiy mas'uliyati atamasidan foydalanilgan bo'lib, bu tadbirkorlarning ijtimoiy, ekologiya va boshqa sohalarini rivojlantirish uchun ixtiyoriy hissa qo'shishi sifatida qayd etilgan [6].

Bu o'z navbatida KIEM o'zi **ixtiyoriymi yoki majburiymi** degan tabiiy savolni keltirib chiqaradi. Garchi KIEM ixtiyoriy ravishda ijtimoiy va ekologik hisobdorlikni o'z bo'yniga olishni anglatsada, amalda qonun hujjatlari va xalqaro standartlar korporativ sektorga KIEM talablarini joriy etish va ularga amal qilish majburiyatini yuklaydi. Bunda yuridik shaxslar o'z faoliyat turi va tashqi muhitga ehtimoliy ta'siridan kelib chiqib, qanday majburiyatlarni o'z zimmasiga olishni ixtiyoriy belgilaydi. Xususan, Yevropa Komissiyasi muqaddam KIEMni ixtiyoriy majburiyat sifatida e'tirof etgan bo'lsa, keyinroq berilgan yangi tarifda "ixtiyoriylik" tamoyilidan voz kechilgan [4].

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar, bozor mexanizmlari ishlaydigan, qonun ustuvorligi va sud hokimiyatining mustaqilligi ta'minlangan hamda iste'molchilik madaniyati shakllangan davlatlarda KIEM o'zini-o'zi ixtiyoriy tartibga solishini ko'satadi. Aksincha, qonun ustuvorligi zaifroq rivojlanayotgan davlatlarda KIEMni **aqlli tartibga solish** maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan [7]. Bunda KIEM ham ixtiyoriy, ham majburiy mexanizmlar orqali tartibga solinib, korporativ sektor ushbu standartlarga yalpi rioya etish darajasiga chiqqishi uchun mazkur tamoyillarni davlat tomonidan rag'batlantirib borish tavsiya etiladi.

## Xalqaro mezon va standartlar

KIEMning jamiyatdagi barcha manfaatdor shaxslar uchun birdek afzalliklari yuqoriligini inobatga olib, hozirda rivojlangan davlatlarda KIEM standartlariga amal qilish biznes yuritishning tarkibiy elementi, jamiyat tomonidan biznesni yuritishga ruxsat berilganligining e'tirofi hisoblanadi. Bu borada milliy qonunchilik, institutsional va xalqaro standartlar KIEM talablariga rioya qilishga chorlaydi va qo'llab-quvvatlaydi.

Xususan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), shuningdek Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij Konvensiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni ijro etish bo'yicha kompaniyaning strategiyasi va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishni nazarda tutadi. Xususan, Yaponiyaning Toyota Motors korporatsiyasining ekologiya bo'yicha strategiyasi - Atrof-muhit 2050 chaqirig'i deb nomlangan bo'lib, mazkur strategiya bir qator maqsadlarga erishishni ko'zda tutadi. Jumladan, 2050 yilgacha kompaniyaning ishlab chiqarish obyektlaridan atmosferaga uglevodorod gazlar (CO<sub>2</sub>) chiqarishni umuman to'xtatish, ya'ni tashlanmalar miqdorini nolga tushirish, yangi ishlab chiqarilgan avtomobillardan atmosferaga uglevodorod chiqarishni 2010 yildagiga nisbatan 90 foizga kamaytirish, ishlab chiqarishda suv sarfini kamaytirishni va mazkur maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini nazarda tutadi [8].

## Amalga oshirish mexanizmlari

KIEM bilan bog'liq faoliyat kompaniyaning katta-kichikligi, faoliyat yuritish sohasi, alohida davlatdagi holat va boshqa omillarga qarab farq qiladi. Kompaniya qanchalik katta bo'lsa, KIEM bilan shug'ullanish uchun resurs va imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Bunda KIEMni amalga oshirish bir qator mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Shulardan eng kenq tarqalgan mexanizmlardan biri **korporativ hisobdorlikdir**. Bunda kompaniya o'z faoliyatining nomoliyaviy jihatlari, xususan atrof-muhitga ta'siri va mazkur ta'sirni yumshatish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun amalga oshirilgan va amalga oshiriladigan tadbirlar va chora-tadbirlar xususida hisobot taqdim etadi. Garchi bunday hisobotlar ixtiyoriy tartibda chop etilishi nazarda tutilgan bo'lsada, ko'pchilik rivojlangan davlatlarda ma'lum toifadagi kompaniyalar (asosan yirik kompaniyalar) uchun bu majburiy mexanizm hisoblanadi. Xususan, Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga ko'ra 500 va undan ortiq ishchisi bo'lgan yirik kompaniyalar o'z faoliyatining nomoliyaviy jihatlari bo'yicha hisobot taqdim etishi kerak [9]. hamda mazkur standartlar amal qilish doirasini kengaytirish (boshqa kompaniyalarga ham joriy etish) masalasi rejalashtirilmoqda [10].

Tadqiqotlarga ko'ra, hisobdorlik kompaniyalarning atrof-muhitga salbiy ekologik ta'sirini kamaytirish va atrof-muhit ifloslanishi darajasini pasaytirishga olib keladi [11]. Shuningdek, hisobdorlik kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlari bilan birga kompaniya faoliyatiga baho berishning asosiy mezonlaridan bo'lib, investorlar va boshqa manfaatdor shaxslar uchun muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, Amerika mintaqasidagi top 100 kompaniyaning 90 foizi, Yevropada 77 foizi, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 84 foizi, Yaponiyada esa 100 foiz holatda kompaniyalar bunday hisobotlarni chop etadi [12].

*Ikkinchi muhim mexanizmlardan biri bu lozim darajadagi ehtiyotkorlikdir.* Fransiyada 2017 yildan qabul qilingan mazkur mexanizm kompaniyaning ekologiyaga ehtimoliy etkazishi mumkin bo'lgan xavfini oldindan aniqlash va oldini olish choralari ko'rishni talab etadi. Bunda kompaniya o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajara olmasa, istalgan shaxs kompaniyani javobgarlikka tortish bo'yicha sudga da'vo kiritishi va etkazilgan zarar uchun kompetitsiya undirib olishi mumkin [13].

Shu kabi, majburiy mexanizmlardan biri KIM **majburiyati** hisoblanadi. Indoneziyada 2007 yilda qabul qilingan ushbu chora tabiiy resurslar bilan bog'liq sohalarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarga ijtimoiy va ekologik mas'uliyat standartlarini majburiy joriy etishni nazarda tutadi [14]. Garchi Indoneziya qonunchiligida ushbu majburiyatning ijro mexanizmlari aniq va takomillashmagan bo'lsada, bu korporativ sektorning xabardorligi va mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim mexanizmlardan biri davlat va korporativ xaridlar bilan bog'liq. Bunda xaridlarini amalga oshirishda muhim mezonlardan biri mahsulot (xizmat)ning ekologik tozaligi,



ya'ni ekologiyaga xavfsiz, qayta tiklanuvchi manbalardan olingan yoki mahsulotni qayta ishlash imkoniyati mavjudligi kabi omillarga asosan **“yashil” xaridlarni** amalga oshirishni nazarda tutadi.

Navbatdagi mexanizm ekologik mas'uliyat va moliyaviy jihatlarni qamrab olgan bo'lib, **yashil investitsiyalar** deb nomlanadi. Bunda investor o'z mablag'larini investitsiya qilishdan oldin ekologik xavf-xatarlarni baholashi va ekologiyaga zarar keltirishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarga investitsiya kiritmaslik va bu kabi loyihalarda qatnashmaslikni o'z zimmasiga oladi.

Mavritaniya, Hindiston, Nepalda joriy etilgan choralardan biri ijtimoiy-ekologik maqsadlar uchun **majburiy moliyaviy ajratmalar** va xayriya qilishni nazarda tutadi. Xususan, Hindiston qonunchiligida bunday majburiy xayriya ayrim toifadagi kompaniyalar uchun oxirgi uch yildagi o'rtacha daromadining ikki foizini qonunda belgilangan ustuvor yo'nalishlarga ajratilishini nazarda tutadi [15]. Bunday majburiy moliyaviy ajratmalar O'zbekistonda ham 2019 yilgi soliq islohotlariga qadar qo'llanilib kelingan. Davlat byudjeti parametrlariga asosan 2015-2017 yillarda bunday ajratmalar korxonalar daromadining 3.05 foizini, 2018 yilda 3.2 foizni ijtimoiy maqsadlarga pensiya, yo'l jamg'armasi, umumta'lim maktablari va tibbiyot muassasalari qurish va rekonstruksiya qilish uchun ajratilishini nazarda tutgan. Mazkur ajratmalar korxonalar uchun qo'shimcha soliq yuki hisoblanib, amalda biznesning ekologik yoki ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga olib kelmaydi va samaradorligi yuqori bo'lmagan choralardan hisoblanadi.

### **O'zbekistonda KIEM tamoyillarining joriy etilishi ahvoli**

KIEM O'zbekistonda yangi kirib kelayotgan institutlardan biri hisoblanadi. Milliy qonunchilikda KIEMga oid aniq normalar belgilanmagan. Shunday bo'lsada, milliy qonunchilikda bilvosita KIEMga oid normalar o'z aksini topgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonunida davlat idoralari hamda korxonalar va tashkilotlarga fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg'unlashtirish, tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag'batlantirish [16] kabi majburiyatlar yuklatilgan. Biroq, qonunda korporativ sektorga atrof tabiiy muhit sifatining normativlari va standartlarida belgilanganidan ham yuqori standartlarni ixtiyoriy joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan normalar nazarda tutilmagan. Shuningdek, tabiatdan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni rag'batlantirish cheklangan doiradagi chora-tadbirlardan iborat hamda etarli ijro mexanizmlari bilan ta'minlanmagan.

Davlat va korporativ xaridlarga oid qonunchilikda davlat xaridlariga oid takliflarni baholash mezonlarida narx, sifat ko'rsatkichlari, to'lov va kafolatlar shartlari kabi bir qator asosiy mezonlar belgilangan. Bunda tovarlarning (ish, xizmatlarning) energiya samaradorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik jihatdan maqbul materiallardan hamda ikkilamchi xomashyodan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kabi ekologik maqbulligiga oid omillardan ikkilamchi mezon sifatida foydalanilishi mumkinligi nazarda tutilgan [17]. Shundan kelib chiqib, davlat xaridlarida tovar, ish va xizmatlarning ekologik maqbulligini birlamchi asosiy mezonlar sifatida belgilash zarur.

Ma'lumki, BMT tomonidan 2015 yilda Barqaror rivojlanish maqsadlari qabul qilingan. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son qarori bilan 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar belgilangan. Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha asosiy ijrochi etib davlat boshqaruvi organlari va Savdo-sanoat palatasi belgilangan bo'lib, xususiy yoki korporativ sektorni barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga jalb etish yoki rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilmagan.

Biznes va korporativ sektor faoliyatini ixtiyoriy, o'zini-o'zi boshqarish tamoyili asosida tartibga soluvchi normalarda ham KIEM standartlari hali keng joriy etilmagan. Jumladan, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi tomonidan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksida ochiqlik, hisobdorlik, manfaatlar to'qnashuvi, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishga doir ayrim normalar belgilangan bo'lsada, moliyaviy barqarorlik eng asosiy strategik maqsad sifatida belgilangan [18]. Mazkur hujjatda KIEMga oid talablar yoki tamoyillar nazarda tutilmagan.

Xuddi shunday, Savdo-sanoat palatasi tomonidan 2018 yilda tasdiqlangan Biznes yuritish etikasi kodeksida biznesning ijtimoiy mas'uliyatiga oid ayrim normalar belgilangan bo'lsada [19], ekologik mas'uliyatga oid talablar mavjud emas. Shuningdek, "Toshkent" respublika fond birjasining "Birja kotirovkalash varag'i to'g'risida"gi nizomda ham KIEMga oid qoida va tamoyillar belgilanmagan [20].

Boshqa rivojlanayotgan davlatlarda bo'lgani kabi mamlakatimizda korporativ sektorning o'ziga xos xususiyati ko'proq foyda olish hamda shaxsiy yoki kompaniya manfaatlarini umumjamiyat manfaatlaridan ustun qo'yish asosiy maqsad sifatida belgilangan, korporativ ochiqlik va shaffoflik darajasi past, korxonaning atrof-muhit va ekologiyaga ta'siri yuzasidan befarqlik yoki inobatga olmaslik, KIEM va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan xabardorlik darajasi past, KIEMdan rasmiyatchilik yoki piar-reklama uchun foydalanish hollari kuzatiladi.

Garchi milliy urf-odat va diniy an'analarga asosan korporativ sektor xayriya ishlarida faol bo'lsada, KIM xayr-ehsondan farqli ravishda maqsadli, davomli, tizimli tarzda aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, amalga oshirilgan ishlar natijasi monitoring va tahlil qilinadi, baho beriladi, shunga oid korporativ siyosat va amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirib boriladi. Bunda kompaniyalar KIEMni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari va boshqa tegishli tashkilotlarni autsorsing sifatida jalb etishi mumkin.

Afsuski, O'zbekistonda korporativ sektorning mas'uliyatsizligini maktabga qarashli erlarni va jamoat joylarini insofsizlarcha egallab olish, madaniy meros ob'yektlariga zarar etkazish yoki vayron qilish, byudjet mablag'larini samarasiz sarflash, monopol kompaniyalarning o'z maqomini suiste'mol qilish, sifatsiz yoki qalbaki dori vositalari va tovarlarni realizatsiya qilish, noqonuniy yoki sifatsiz qurilish ishlari, daraxtlarni kesish, yashil zonalarini egallash kabi turli ko'rinishlarda amalga oshirilayotganligini ko'rish mumkin.

Ayni paytda, davlat resurslari cheklangan, ma'muriy islohotlar sharoitida davlat va nazorat qiluvchi organlarning optimallashtirilishi, xususiylashtirish va davlat vakolatlarining xususiy sektorga o'tkazilishi, korrupsiya darajasi yuqori, qonun ustuvorligi zaif sharoitda korporativ sektorning mas'uliyatini oshirishga jiddiy **zarurat** mavjud. Shunday sharoitda KIEM tamoyillari yuridik shaxslarning mas'uliyati va hisobdorligini oshirish bo'yicha eng samarali echim hisoblanadi. KIEM tamoyillarini turli vositalar, shu jumladan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangani kabi korporativ miqyosda aniq maqsad va vazifalarni belgilab olib, amalga osirish mumkin.

KIEM standartlari O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan ba'zi yirik kompaniyalar, xorijiy yoki qo'shma korxonalar faoliyatida joriy etilganligini ko'rish mumkin. KIEM tamoyillarini joriy etgan va uni tatbiq etayotgan kompaniyalar buni xalqaro standart, global bozorda ishtirok etishning zaruriy sharti sifatida yoki tashkilotning ta'sischi bo'lgan xorijiy kompaniyalarning talablari va kompaniya siyosatiga muvofiq amalga oshirayotganligini ko'rsatadi. Ochiq axborotlar tahlili asosida O'zbekistondagi tashkilot va korxonalar tomonidan KIEM tamoyillarining joriy etilishi ahvoli o'rganilganda quyidagilar aniqlandi:

Xususan, 2022 yil holatida mamlakatimizdagi eng katta soliq to'lovchi kompaniyalardan ikkitasi tomonidan barqaror rivojlanish bo'yicha hisobotlar chop etilgan. Jumladan, Navoiy kon metallurgiya kombinati tomonidan ikki marotaba barqarorlik hisoboti (2019, 2020 yillarga oid) e'lon qilingan bo'lsa, "O'ztransgaz" o'zining birinchi va oxirgi barqarorlik hisobotini (2020 yilga oid) taqdim etgan.

Xorijiy yoki qo'shma korxonalarda KIEM tamoyillari ancha kengroq miqyosda joriy etilgan bo'lib, bu kompaniyaning barqaror rivojlanish bo'yicha siyosati va KIEMga oid loyihalarni o'z ichiga qamrab olgan. Jumladan, UZBAT kompaniyasi tomonidan Ta'minotchining axloq kodeksi, Tadbirkorlik faoliyatini yuritish qoidalari, suv resurslaridan mas'uliyat bilan foydalanish bo'yicha majburiyatlar kabi korporativ hujjatlarda KIEMga oid tamoyillar belgilangan. Shulardan Ta'minotchining axloq kodeksida [21] nafaqat kompaniyaning biznes faoliyati, balki ta'minot zanjirida ishtirok etuvchi korxonalar va sub'yektlar uchun ham qonuniylik, lozim darajadagi ehtiyotkorlik, ekologik barqarorlik va axloqiy me'yorlar kabi tamoyillarga amal qilish

bo'yicha aniq talablar qo'yilgan. Mazkur Kodeks hisobot berish, muvofiqlikni nazorat qilish mexanizmlarini ham o'z ichiga olib, unda belgilangan qoidalarni buzganlik uchun aniq choralar belgilangan. Shuningdek, kompaniya tomonidan qishloq joylarni ichimlik suvi bilan ta'minlash, ko'kalamzorlashtirish, ekologik markaz yaratish, irrigatsiya tizimini yaxshilash va tibbiyot muassasalari uchun barqaror energiya texnologiyalarini o'rnatish kabi barqaror rivojlanish va ekologik loyihalarga hissa qo'shilgan.

Shunga o'xshash, O'zbekiston-AQSH qo'shma korxonasi "Silverleaf" MChJ suvni ko'p iste'mol qiladigan tarmoqlardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi va to'qimachilik sanoatida faoliyat yuritadi. Kompaniyaning KIEM bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlari Odob-axloq kodeksida [22] aniq ifodalangan bo'lib, unda barqaror rivojlanish va mas'uliyat kompaniyaning asosiy strategik ustunlari sifatida belgilangan. Shuningdek, kompaniya turli ijtimoiy, ekologik va jamoat loyihalarida ishtirok etayotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, kompaniyaning suv va er resurslarini boshqarish bo'yicha loyihalari sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish va erlarni lazer bilan tekislash orqali suvdan foydalanishni kamaytirish va tuproq salomatligini yaxshilashga qaratilgan.

O'zbekistondagi o'rganilgan tashkilotlarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha boshqaruv tuzilmalari mavjud bo'lsada, KIEM yoki barqaror rivojlanish bilan shug'ullanadigan maxsus tuzilmalar mavjud emas. Bundan tashqari, o'rganilgan tashkilotlarning hech birida kompaniya faoliyati ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan manfaatdor tomonlar (hududdagi mahalliy aholi, boshqa tashkilot, korxonalar va fuqarolik jamiyati institutlari) o'rganilmagan, ular bilan muloqot o'tkazilmagan va barqarorlik hisobotlarini tayyorlashda yoki strategiyalarni ishlab chiqishda ularning istak va ehtiyojlari o'rganilmagan va inobatga olinmagan.

Shunday qilib, O'zbekistonda korporativ sektor tomonidan KIEMni joriy etgan shaxslar doirasi cheklangan va ko'lemi keng emas. Shu sababli, davlat va biznes hamjamiyat tomonidan KIEM tamoyillarini keng joriy etish, tatbiq etish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish taklif qilinadi.

#### **KIEM standartlarini O'zbekistonda joriy etish istiqbollari**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda ham korporativ sektorning mas'uliyati va hisobdorligini oshirish, KIEMni keng tatbiq etish yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

*Birinchi*dan, KIEM tamoyillari milliy qonunchilikka, xususan tadbirkorlik va ekologiyaga oid qonunchilikda mustahkamlanishi zarur. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-sonli qarori bilan ro'yxati keltirilgan atrof muhitga zarar etkazish darajasi yuqori va o'rta bo'lgan faoliyat turlari uchun lozim darajadagi ehtiyotkorlik va hisobdorlik mexanizmlarini joriy etish va majburiy etib belgilash taklif qilinadi. Keyinchalik, mazkur majburiy choralar boshqa kompaniyalarga, barcha davlat ulushi bo'lgan korxonalar va boshqa yirik kompaniyalarga bosqichma-bosqich joriy etilishi maqsadga muvofiq.

*Ikkinchi*dan, biznes sektorning faoliyatini o'zini-o'zi tartibga soluvchi korporativ kodeks va yo'riqnomalarda (Korporativ boshqaruv kodeksi, va h.k), shuningdek biznesning ichki hujjatlarida KIEM tamoyillariga oid siyosat va qoidalarni kiritish tavsiya qilinadi. Bunda tadbirkorlik subyektlarining birlashmalari, tarmoq uyushmalari KIEMni oshirish yuzasidan tarmoq standartlarini joriy etishi maqsadga muvofiq.

Bunda biznesning ekologik madaniyati va xabardorligini oshirish qaratilgan chora-tadbirlar, targ'ibot va tushuntirishlar amalga oshirilishi lozim. Xuddi shuningdek, korporativ sektorning ekologik mas'uliyatini oshirishga qaratilgan o'quvlar tashkil etish va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, biznesning ekologik xabardorligini oshirish hamda ekologiyaga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish tavsiya etiladi.

*Uchinchi*dan, jamoat manfaatlari uchun sud da'vo qo'zg'atish mexanizmlarini rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rilishi lozim. Bunday masalalarda sud jarayoni uzoq vaqt davom etishi va da'voni asoslantirish yuqori malaka talab etishini hisobga olib yuridik xizmat xarajatlari yuqori bo'ladi. Shu sababli, bunday da'vo ishlari uchun bepul yuridik xizmat imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatining davlat tomonidan kafolatlanishi dastlabki qadam bo'lishi mumkin.

*To'rtinchidan*, davlat va korporativ xaridlarni amalga oshirishda narx bilan birga ekologik toza tovar va xizmatlarni xarid qilish asosiy mezonlar sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

*Beshinchidan*, KIEM tamoyillarini tatbiq etgan tadbirkorlik subyektlarini turli nominatsiyalar bo'yicha rag'batlantirish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur tizim amaldagi yilning eng yaxshi tadbirkorini taqdirlash bo'yicha o'tkazib kelinayotgan an'anaviy respublika tanlovi doirasida o'tkazilishi mumkin.

KIEM tamoyillarining qonunchilikka kiritilishi va ushbu tamoyillarning joriy etilishini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dastlabki yildanoq katta o'zgarish yoki natijalarga olib kelishini umid qilmaslik kerak. Ushbu tamoyillar joriy etilgandan keyin dastlabki yillarda korporativ sektorning mazkur tamoyillardan xabardorligining oshishi o'zi katta natija hisoblanadi. Keyinchalik, bosqichma-bosqich o'zaro raqobatlashayotgan korporativ sektor nafaqat narx yoki sifat bilan, balki KIEM tamoyillarining keng tatbiq etilishi bo'yicha ham o'zaro raqobatlasha boshlaydi.

Ayni paytda, KIEM tamoyillarining keng tatbiq etilishiga erishish va uning joriy etilishini nazorat qilish OAVlari, faol iste'molchilar qatlami va nodavlat notijorat tashkilotlar yordamida jamoatchilik nazorati mexanizmlariga tayanadi. Shu sababli, davlat fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish, ijtimoiy sherikchilik tamoyillari asosida insofsiz tadbirkorlik sub'yektlari, ekologiyani ifloslantiruvchi shaxslarni fosh etishga oid faoliyatini qo'llab-quvvatlashi maqsadga muvofiq.

Mazkur chora tadbirlar korporativ sektordan ma'lum bir moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishni talab etsada, bunday xarajatlar mas'uliyatsizlik oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jiddiy ekologik talafotlar va aholi sog'lig'i bilan bog'liq inqirozli holatlar natijasida etkazilishi mumkin bo'lgan zararga qaraganda ancha kam hisoblanadi. Ayni paytda, KIEM standartlarini joriy etish davlat tomonidan ortiqcha ma'muriy xarajatlarni talab etmaydi va o'zini-o'zi tartibga solishga qaratilgan mexanizmlarga tayanadi. Buning uchun davlat tomonidan tegishli qonunchilik va standartlarni ishlab chiqish, ularning joriy etilishi va keng tatbiq etilishini rag'batlantirish talab etiladi xolos.

#### **Иқтибослар/Сноски/References:**

1. World Air Quality Report 2021, IQAir. 2021 // URL: <https://www.iqair.com/us/uzbekistan>.
2. Health, Environment and Climate Change: Report by the Director-General. A71/10. World Health Organization. 2018 // URL: <https://apps.who.int/iris/handle/10665/276332>.
3. "World Health Organization Releases New Global Air Pollution Data." Climate & Clean Air Coalition. accessed January 15, 2022 // URL: <https://www.ccacoalition.org/en/news/world-health-organization-releases-new-global-air-pollution-data>.
4. A renewed EU strategy 2011-14 for Corporate Social Responsibility, [2011] COM(2011) 681 // URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/HTML/?uri=CELEX:52011DC0681&from=EN>.
5. UNIDO, "What Is CSR?" accessed April 25, 2022. // URL: <https://www.unido.org/our-focus/advancing-economic-competitiveness/competitive-trade-capacities-and-corporate-responsibility/corporate-social-responsibility-market-integration/what-csr>.
6. Qozog'iston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi, 2015, Qozog'iston Respublikasining normativ huquqiy hujjatlar "Adilet" Huquqiy axborot tizimi.
7. Mia Mahmudur Rahim, Legal Regulation of Corporate Social Responsibility. CSR, Sustainability, Ethics & Governance. Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg. 2013 // URL: <http://link.springer.com/10.1007/978-3-642-40400-9>.
8. Toyota Motor Corporation, Integrated report 2021, Sustainability Data Book 2022 // URL: [https://global.toyota/pages/global\\_toyota/sustainability/report/sdb/sdb22\\_en.pdf](https://global.toyota/pages/global_toyota/sustainability/report/sdb/sdb22_en.pdf)
9. Directive 2014/95/EU of the European Parliament and of the Council of 22 October 2014 amending Directive 2013/34/EU as regards disclosure of non-financial and diversity information by certain large undertakings and groups, 32014L0095, European Parliament, Council of the European Union (2014) // URL: <http://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/>

[TXT/?uri=CELEX%3A32014L0095.](#)

10. Corporate sustainability reporting, European Commission // URL: [https://finance.ec.europa.eu/capital-markets-union-and-financial-markets/company-reporting-and-auditing/company-reporting/corporate-sustainability-reporting\\_en](https://finance.ec.europa.eu/capital-markets-union-and-financial-markets/company-reporting-and-auditing/company-reporting/corporate-sustainability-reporting_en).

11. Wang, Mengxin, Gaoke Liao, and Yanling Li. "The Relationship between Environmental Regulation, Pollution and Corporate Environmental Responsibility." *International Journal of Environmental Research and Public Health* 18, no. 15 (2021): 1–13 // URL: <https://www.mdpi.com/1660-4601/18/15/8018>.

12. Threlfall, Richard, Adrian King, Jennifer Shulman, and Wim Bartels. *The Time Has Come: The KPMG Survey of Sustainability Reporting 2020*. KPMG, 2021 // URL: <https://home.kpmg/xx/en/home/insights/2020/11/the-time-has-come-survey-of-sustainability-reporting.html>.

13. Mathieu Pollet, EU corporate due diligence law to learn from the French example, 2022 // URL: <https://www.euractiv.com/section/economy-jobs/news/eu-corporate-due-diligence-law-to-learn-from-the-french-example/>.

14. Li-Wen Lin, "Mandatory Corporate Social Responsibility Legislation around the World: Emergent Varieties and National Experiences," *University of Pennsylvania Journal of Business Law* 23, no. 2 (January 1, 2021): 431.

15. Dhammika Dharmapala and Vikramaditya Khanna, "The Impact of Mandated Corporate Social Responsibility: Evidence from India's Companies Act of 2013," *International Review of Law and Economics* 56 (2018): 93 // URL: <https://doi.org/10.1016/j.irl.2018.09.001>.

16. O'zbekiston Respublikasining 09.12.1992 yildagi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-XII-son Qonuni // URL: <http://lex.uz/uz/docs/-107115>.

17. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni // URL: <http://lex.uz/uz/docs/-5382974>.

18. Korporativ boshqaruv kodeksi, 2016 // URL: <https://davaktiv.uz/oz/menu/kodeks-korporativnogo-upravlenija>.

19. Biznes yuritish etikasi kodeksi, 2018 // URL: <https://chamber.uz/uzk/news/2802>.

20. "Toshkent" respublika fond birjasining "Birja kotirovkalash varag'i to'g'risida"gi nizom, 2020 // URL: <https://www.uzse.uz/legislations/342>.

21. UZBAT AJ QK, Ta'minotchining axloq kodeksi, 2022 // URL: <https://bat.uz/uz/kompaniya-haqida/bizning-biznes-hamkorlarimiz-uchun/taminotchining-axloq-kodeksi/>.

22. "Silverleaf" MChJ qo'shma korxonasi, Odob-axloq qoidalari, 2022 // URL: <https://silverleaf.uz/uz/code-of-conduct/>.